ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Termiz davlat universiteti

Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

Samadova Shohida

„BANK OMONATI SHARTNOMASINING HUQUQIY AHAMIYATI: MILLIY VA XALQARO QONUNCHILIK TIZIMIDAGI O'RNI''

Annotatsiya : Mazkur maqolada bank omonati shartnomasining huquqiy mohiyati, uning tarixiy shakllanish jarayoni hamda O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, bank omonati shartnomasi bo'yicha amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolar, ularni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan islohotlar hamda xalqaro huquqiy tizimlarda mazkur shartnomaning tartibga solinishi o'rganiladi. Milliy va xalqaro qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish asosida bank omonati shartnomasini yanada takomillashtirishga doir takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: bank omonati, shartnoma, omonatchi, bank majburiyati, kafolatlash tizimi, xalqaro tajriba, qonunchilik, depozitum,Deposit Guarantee Schemes ,Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC) ,omonat daftarchasi.

Bank omonati shartnomasi bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida bank tizimi va davlat iqtisodiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Banklar nafaqat moliyaviy vositachi sifatida, balki aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'larini jamlash, saqlash va muomalaga kiritishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonda bank omonati shartnomasi bank va omonatchi o'rtasidagi asosiy huquqiy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Bank omonati shartnomasi orqali fuqarolar va yuridik shaxslar o'z mablag'larini bankka ishonib topshiradi, bank esa ushbu mablag'larni qaytarish va belgilangan foizlarni to'lash majburiyatini oladi. Shu sababli bank omonati shartnomasining huquqiy jihatdan puxta tartibga solinishi nafaqat omonatchilar manfaatlarini himoya qilish, balki butun moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bank omonati shartnomasi qadimiy huquqiy institutlardan biri bo'lib, uning ildizlari Rim huquqidagi "depositum" tushunchasiga borib taqaladi. Bank omonatlari to'g'risidagi tushunchalar XVIII–XIX asrlarda Yevropada davlatlarida shakllangan. Dastlab, ular jamiyatdagi shaxslarning o'z mablag'larini xavfsiz saqlash va foiz olish maqsadida banklarga pul mablag'larini topshirishdan iborat bo'lgan. Birinchi zamonaviy omonat banklari Buyuk Britaniya, Germaniya va Fransiyada paydo bo'lgan. Masalan, 1762 yilda Stockholms Banco (Shvetsiya) – birinchi omonat hisob-kitoblarini yuritgan 19-asrda Angliya va Germaniyada tijorat banklari omonatlarni jalb qilgan. Dastlabki omonat tizimi foydalanish jihatidan juda sodda tartibda tashkil etilgan . [1]Ya'ni dastlab mijoz mablag'ni bankka topshiradi, bank esa shu mablag' uchun odatda yillik yoki oylik foiz to'lagan. Mablag' topshirilgandan so'ng bank mablag'ni saqlagan va boshqa kredit operatsiyalariga ishlatgan .Bank olingan depozitni tijorat faoliyati uchun ishlatgan ,lekin mijozning pulini xavfsiz saqlash kafolatini bera olgan.

[1]https://www.researchgate.net/publication/355708379_The_Origins_and_Evolution_of_Deposit_Banking_Activities_-_Analysis_of_the_Literature

Dastlab omonat munosabatlari asosan mol-mulkni saqlashga topshirish shaklida mavjud bo‘lgan. Keyinchalik bank tizimining rivojlanishi bilan pul mablag‘larini saqlash va ulardan foyda olish imkoniyati paydo bo‘ldi.

O‘rta asrlarda banklar savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning mablag‘larini saqlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan cheklangan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan omonat munosabatlari murakkablashib, alohida shartnoma turi sifatida shakllandi. Bugungi kunda zamonaviy huquq tizimlarida bank omonati shartnomasi fuqarolik huquqining mustaqil instituti sifatida e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasida bank omonati shartnomasi 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi bilan huquqiy jihatdan mustahkamlangan. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida bank omonati shartnomasiga oid normalar maxsus qismida mavjud bo’lib, 43-bob ,759-770-moddalarda mustaxkamlangan bo’lib, ular omonatchi va bank o‘rtasidagi huquq va majburiyatlarni aniq tartibga soladi.

Milliy qonunchiligimizda bank omonati shartnomasi fuqarolik-huquqiy shartnoma sifatida e’tirof etiladi. Ushbu shartnomaga ko‘ra, bank omonatchidan pul mablag‘ini qabul qilib, uni belgilangan shartlarda saqlash, qaytarish va foiz to‘lash majburiyatini oladi. Ushbu shartnomaga ko’ra bir taraf omonatchi ikkinchi taraf omonatni qabul qiluvchi bank shartnomada taraflar hisoblanadi. Bank omonati shartnomasiga ko’ra omonat summasi bankka kelib tushgan kundan boshlab tuzilgan hisoblanadi. Agarda shartnomada fuqaro omonatchi bo’lsa bu shartnoma O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi asosida ommaviy shartnoma sifatida e’tirof etiladi. Bank omonati shartnomasi bo’yicha mustahkamlangan banklarda doir umumiy qoidalar omonatlarni qabul qiluvchi kredit tashkilotlariga nisbatan ham qo’llaniladi. Shartnoma asosida omonatlarni qabul qilish faqatgina qonunchilikda belgilangan tartibda litsenziyaga ega bo’lgan banklarga nisbatan qonuniy hisoblanadi. Agarda omonat qabul qiluvchi muassasa bunday huquqqa ega bo’lmasa omonat saqlovchi shaxs omonatni qaytarib berishni talab qilishi mumkin, yoxud o’ziga yetkazilgan zararni ta’minlashni talab qilish huquqiga ega bo’ladi. Bank omonati shartnomasi doimo yozma shaklda tuzilishi shart bo’lgan hujjat hisoblanadi. Agarda taraflar tomonidan shartnomaning yozma shakliga amal qilinmasa, bu shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi. Omonatni saqlovchi bank omonat qo’yilganligini omonat daftarchasi, jamg’arma (depozit)sertifikati yoki bank amaliyotida qo’llaniladigan ish muomalasi odatlarida nazarda tutilgan talablarga javob beradigan boshqa hujjatlar bilan mustahkamlashi lozim.Milliy qonunchiligimizga ko‘ra bank omonati shartnomasining 2xil turi mavjud.Ya’ni:

1. Talab qilinguncha saqlanadigan omonat
2. Omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish bilan tuziladigan omonat. (muddatli omonat)

Bank omonati shartnomasiga ko‘ra omonatchi omonat saqlovchi bankdan yoxud kredit muassasidan omonatni belgilangan muddatdan oldin qaytarib olmoqchi bo‘lsa, muddat tugagunga qadar o’zining bu niyati haqida 1oy oldin xabardor qilishi shart hisoblanadi.Agarda omonatchi va omonat saqlovchi bank o‘rtasidagi shartnomada boshqacha shartlar belgilanmagan bo‘lsa, saqlangan muddat uchun foizlar to’lanmaydi. Ammo, bu shart talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat saqlash shartnoma turi uchun qo’llanilmaydi. Omonat saqlash shartnomasi asosida omonat saqlovchi bank muassasi tomonidan omonatchi uchun belgilangan miqdorda foizlar to’laydi. Omonat summasi uchun foizlar omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, omonatchiga qaytarilgan yoki uning hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi. Agarda omonatchi tomonidan bankka qo‘yilgan omonat ushbu davr mobaynida xatlangan va bu davr mobaynida bank bu summadan foydalana olmagan bo‘lsa xatlangan muddat davomida foizlar to’lamaydi. Shartnomaga asosan bank omonati summasiga foizlar har bir oy o‘tganidan keyin uning talabi bilan omonat summasidan alohida to‘lanadi,

agarda omonatchi bu muddat davomida foizlarni talab qilib olmagan bo‘lsa, foizlar omonat summasiga qo‘shilib boradi.Agarda omonat qaytariladigan bo’lsa shu paytgacha yozilgan hamma foizlar omonatchiga to‘lanadi. Omonat qaytarilishini ta‘minlash shartnoma asosida belgilangan bo‘lib, bank omonatchining talabiga muvofiq omonat qaytarilishi ta‘minlanganligini to‘g’risida axborot berishi shart. Omonatlar uchinchi shaxslar foydasiga ham qo‘yilishi mumkin. Ushbu shartnomaning muhim sharti omonatchi kimning nomiga omonat qo‘yayotganini ya’ni uning ism sharifini yoki yuridik shaxsning nomini ko‘rsatishi lozim. Agarda nomiga omonat qabul qiluvchi shaxs undan vos kechadigan bo‘lsa, uchinchi shaxs nomiga omonat saqlash shartnomasini tuzgan shaxs omonatni qaytarib olish talab qilishi yoki o‘z nomiga o‘tkazishni so‘rab bankka murojaat qilishi mumkin. Bank omonati shartnomasida eng muhim jihat va omonatni qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjat ,,omonat daftarchasi’’ bilan rasmiylashtiriladi. Omonat daftarchasining rasmiylashtirishning ham o‘ziga xos jihatlari mavjud. Omonat daftarchasida quyidagilar ko‘rsatilgan bo‘lishi lozim: bankning yoki uning tegishli filialining nomi, uning joylashuv manzili, hisobvaroqqa kiritilgan barcha pul mablag‘lari summasi, hisobvaraq nomeri, hisobvaraqqa kiritilgan pul summlari va hisobvaroqdan o‘chirilgan pul mablag‘lari, hisobvaroqdagi pul mablag‘larining qoldig‘i.

Bank omonati shartnomasining asosiy o‘ziga xos jihati shundaki, unda omonatchi manfaatlari ustuvor hisoblanadi. Fuqarolik kodeksida omonatchining mablag‘ni talab qilib olish huquqi, shartnoma shartlari aniq va tushunarli bo‘lishi, bankning majburiyatlari qat’iy belgilangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda bank sohasida amalga oshirilgan islohotlar bank omonati shartnomasining huquqiy ahamiyatini yanada oshirdi. Xususan, banklar faoliyatining ochiqligi kuchaytirildi, xususiy banklar soni ko‘paydi, valyuta bozorida liberallashuv amalga oshirildi. Eng muhim yangiliklardan biri — omonatlarni kafolatlash tizimining joriy etilishi bo‘lib, bu omonatchilar ishonchini mustahkamlashga xizmat qildi.[2]

Bugungi kunda Bank omonati shartnomasini qonunchilikda ahamiyatini ni oshirish, o‘rnini kuchaytirish va omonat saqlovchilarga qulaylik yaratish maqsadida bir qancha qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, xususan, 2015-yil 26-avgustda 2711-son ,,O‘zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomani tasdiqlash haqida’’ O’zbekiston Respublikasi Markaziy Banki boshqaruvining qarori, [3]2018-yil 7-fevralda ,,Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o’zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo‘yiladigan minimal talablar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida’’ O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori[4], 2025-yil fevralda O‘RQ-1031-son ,,Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to’g’risida’’gi qonunlar qabul qilingan.[5]

Amaliyot bank omonati shartnomasi bilan bog‘liq bir qator muammolar ham mavjud. Ulardan biri shartnoma shartlarining murakkab tuzilishi bo’lib, oddiy omonatchi uchun

[2] https://tashkenttimes.uz/finances/14712-president-signs-law-on-new-deposit-protection-scheme

[3] https://lex.uz/docs/-2730634

[4] https://lex.uz/ru/docs/-3804290

[5] https://ziraatbank.uz/Documents/Category/ZFG_UZBEKISTAN_o%E2%80%98rq-1031-%D1%81%D0%BE%D0%BD-18-02-2025-%C2%A0banklardagi-omonatlarni-himoya-qilish-kafolatlari-to%E2%80%98g%E2%80%98risida-pdf_131.pdf

tushunarsiz tarzda tuzilishidir. Ayrim hollarda foiz stavkalari, muddatidan oldin mablag‘ni yechib olish shartlari yetarlicha aniq ko‘rsatilmaydi.

Bundan tashqari, valyuta omonatlari bilan bog‘liq xavflar ham mavjud. Valyuta kursining o‘zgarishi omonatchi kutgan daromadni kamaytirishi mumkin. Banklarning moliyaviy barqarorligi bilan bog‘liq xavflar esa omonatchilar manfaatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, bankrotlik holatlarida omonatchilar huquqlarini himoya qilish masalasi ham dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Garchi kafolatlash tizimi mavjud bo‘lsa-da, uning amalda ishlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Davlat tomonidan bank omonati shartnomasi bilan bog‘liq muammolarni kamaytirish maqsadida bir qator huquqiy va institutsional choralar ko‘rildi. Omonatlarni kafolatlash fondi faoliyati kengaytirildi, banklar faoliyati ustidan Markaziy bank nazorati kuchaytirildi.

Shuningdek, bank xizmatlarini raqamlashtirish, elektron shartnomalar tuzish amaliyoti joriy etildi. Bu esa shaffoflikni oshirish va omonatchilar huquqlarini yanada samarali himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Xalqaro amaliyotda bank omonati shartnomasi moliyaviy tizim barqarorligini ta’minlovchi muhim institut hisoblanadi. Masalan, Yevropa Ittifoqida omonatlar maxsus Deposit Guarantee Schemes orqali himoya qilinadi. AQShda esa Federal Deposit Insurance Corporation (FDIC) orqali omonatlar sug‘urtalanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, bank inqirozlari davrida omonatchilar ishonchini saqlab qolish uchun kuchli kafolatlash mexanizmlari muhim ahamiyatga ega. Bu tizimlar bank omonati shartnomasining real ishlashini ta’minlaydi.

Milliy qonunchilikni yanada takomillashtirish uchun xalqaro tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq. Xususan, bank omonati shartnomalarini soddalashtirish, omonatchilarni xabardor qilish majburiyatini kuchaytirish, foiz stavkalari va xavflar bo‘yicha to‘liq axborot berishni majburiy qilish lozim.Shuningdek, kafolatlash tizimi doirasini kengaytirish va uning amaliy samaradorligini oshirish,bank tizimiga bo‘lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, bank omonati shartnomasi fuqarolarning moliyaviy manfaatlarini himoya qilish va bank tizimi barqarorligini ta’minlashda muhim huquqiy ahamiyatga ega. Uni milliy va xalqaro standartlar asosida doimiy takomillashtirib borish huquqiy davlat qurish jarayonining muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi

2.“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun

3.O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy materiallari

https://cbu.uz/uz/

4.https://lex.uz

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

5.Moliya huquqi bo‘yicha darsliklar (O‘zbekiston Respublikasi)

https://www.kontrakt.uz/course/view.php?id=104

6.Bank huquqi bo‘yicha ilmiy maqolalar (O‘zbekiston) – JSTOR manba

https://www.jstor.org/stable/24587935

7.Yevropa Ittifoqining Deposit Guarantee Schemes hujjatlari

https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX%3A32009L0014

8.AQSh FDIC rasmiy manbalari

https://www.fdic.gov/deposit/deposits/

9.Xalqaro moliya tashkilotlari sharhlari (IMF, World Bank)

https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2020/06/30/Deposit-Insurance-and-Financial-Stability-49417

10.Bank omonatlari bo‘yicha monografiyalar (O‘zbekiston) – akademik nashrlar

https://elibrary.uz/uz/catalog?field_subject=Banking

11. https://tashkenttimes.uz/finances/14712-president-signs-law-on-new-deposit-protection-scheme

12. https://www.researchgate.net/publication/355708379_The_Origins_and_Evolution_of_Deposit_Banking_Activities_-_Analysis_of_the_Literature